

Jek London Asarlarida Ijodkor Iste'dodi.

Isakova Barchinoy Ne'matovna

O'zbekiston Respublikasi IIV Farg'ona

akademik litseyi tillar kafedrası o'qituvchisi

FarDu mustaqil izlanuvchisi

barchinoyisakova89@gmail.com.

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar:

bevosita tarjima, voqelikka asoslangan, badiiy psixologizm, estetik ta'sir, rasmiy stil, badiiy nutq, gumanistik, o'xshatish oborotlari.

Annotatsiya:

maqolada Amerikalik adib Jek Londonning bir qator asarlarining asosiy g'oyasi, yozuvchining badiiy asarda voqelikni badiiy idrok etishi, obraz yaratishi, asar kompozitsiyasi bilan bog'liq bo'lgan vositalar yoritib berilgan

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2024 LWAB.

KIRISH

Jek London ijodiga qiziqish O'zbekistonda XX asrning 20-30 yillaridan boshlangan. Abdulla Qahhorning Jek London ijodiga oid dastlabki qaydlari ham o'tgan asrning 40-yillariga to'g'ri keladi. Amerikalik adib ijodi o'zbek madaniyatiga dastlab rus tilidagi tarjimalari bilan kirib keldi. 1928-29-yillardayoq Jek Londonning rus tilida 24 tomlik asarlari nashr qilingan. Abdulla Qahhor ham adibning rus tilidagi asarlari bilan tanishgan. Hatto u adib asarlari haqida gapirar ekan, roman nomini o'zbekchaga tarjima qilmay "Den plameneet" deb ketaveradi. Jek London hikoyalari o'zbek tiliga o'tgan asrning 50-yillaridan boshlab tarjima qilina boshladi. 1968-yilda esa "Martin Iden" romani Qodir Mirmuhammedov tomonidan tarjima qilindi. 2010-yilda ijodkorning bir qator hikoyalari F.Abdullayev tomonidan o'zbek tiliga o'girilib, alohida kitob holida chop etildi. To'plamga "Shimol Odisseyasi", "Ayol kishining mardligi", "Hayotga muhabbat", "Isyonchi", "Buyuk sehrgar", "Kish o'g'li Kish", "Meksikalik", "Moxov Kulau" hikoyalari kiritilgan. Hozirgi paytda o'zbek tarjimashunosligi oldiga Jek London asarlarini ingliz tilidan - bevosita asliyatdan tarjima qilish muammosi turibdi.

MAVZU TAHLILI

Hozirgi o'zbek adabiyotida ingliz va Amerika adabiyotidan qilingan tarjimalar katta o'rinni ishg'ol etadi va ularning salmog'i yil sayin oshib bormoqda.

Ayni paytda Jek London moddiy qadriyatlarini birinchi o'ringa chiqqan jamiyatda ma'naviy tanazzulning muqarrarligi, harakati o'zida birvarakayiga mujassamlashtirmoqchi bo'lganlarning halokatga mahkumligini san'atkorona ochib bergan bo'lsa; Abdulla Qahhor hukmron tuzum shaxsni katta bosim

bilan bosib turgan muhitda shu hukmron kuch ketayotgan yo‘ldan bormaslik, unga qo‘shilmaslik qanday fojialarga olib kelishini katta badiiy mahorat va ijodkorga xos savhi tabiiy bilan tasvir etdi.

Jek London romanining asosiy g‘oyasi shundan iboratki, Martin yashagan jamiyatda pastki tabaqa hayoti ham, yuqori tabaqa hayoti ham yuksak insoniy orzularni amalga oshirish uchun yaroqsizdir. Inson bu ikki toifa ichida ham tom ma’noda baxtli bo‘lishi mumkin emas. Ularning birida muhtojlik va qashshoqlik insonni ichkilikbozlik va buzuqlikka sudrab ruhan tubanlashtirsa, ikkinchisida mol-mulkka mukkasidan ketish tufayli tug‘iladigan soxtalik ma’naviy qiyofani siyqalashtirib yuboradi.

Ularning birida inson orzularning amalga oshmasligidan bo‘g‘ilsa, ikkinchisida intilishlarning siyqaligidan nafas ololmaydi. Chinakam insoniy intilish va a’mollar uchun tug‘ilgan Martin kabilarga bu jamiyatda o‘rin yo‘qdir.

Chunki ijodkor mahorati, eng avvalo, inson ruhiyatining to‘g‘ri anglanishi va uning muvofiq vositalar orqali tasvirlanishida namoyon bo‘ladi. Binobarin, badiiy psixologizm asarda qalamga olingan hayot voqea-hodisalarga tiriklik, qahramonlar siymosiga hayotiylik baxsh etadi - roman voqealarini favqulodda jonlantirib yuboradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Demak, estetik ta’sir etish funksiyasi badiiy nutqning o‘ziga xos xususiyatidir. Badiiy adabiyotning bu asosiy va o‘ziga xos funksiyasiga adabiy asarda til vositalarini tanlash va ishlatish printsiplari ham to‘la bo‘ysunadi. Til vositalaridan individual ijodiy foydalanish badiiy stilning adabiy tilning boshqa funktsional stillariga nisbat o‘ziga xosligini belgilovchi eng asosiy xususiyatlardan biridir. Adabiy til stillarning har birida til vositalaridan foydalanishda individuallikning namoyon bo‘lish darajasi turlicha. Masalan, rasmiy stilda biron shaxsiy uslub “muhri”ni ko‘rish, topish ancha qiyin. Shunga ko‘ra, bu nutq stilida individuallikning namoyon bo‘lishi uslub normasining buzilishi deb ham qaraladi. Ilmiy stilda esa individuallikning namoyon bo‘lishi ehtimoldan uzoq emas, chunki bu stilni shaxs (individ)ning ijodisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shunday bo‘lsa ham, til vositalarini individual ishlatish xususiyati ilmiy stil uchun xarakterli belgi bo‘la olmaydi. Publitsistik stilda esa yanada boshqacharoq. Publitsistikaning ba’zi turlarida individual uslub aniq bilinib turishi mumkin. Ammo til vositalarini tanlash va ishlatishdagi individuallik publitsistik stilning barcha namunalari xos xususiyat emas. Adabiy asarlarda individual xususiyatlar asarning badiiylik qimmatini belgilovchi asosiy o‘lchovlardan biridir.

Agar asar uslubida individuallik sezilmasa, bunday asar trafaret, badiiy sayoz asar sifatida tasavvur qilinadi. Yozuvchining badiiy asarda voqelikni badiiy idrok etishi, obraz yaratishi, asar kompozitsiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan individual xususiyatlarning hammasi asar tilida yorqin namoyon bo‘ladi. Yozuvchi qanday voqea va hodisalarni tasvirlashga harakat qilsa, uning asarlarida ham xuddi ana shu voqea va hodisalarni ifodalovchi so‘zlar, til elementlarining ko‘proq qo‘llanilishi tabiiydir.

Realizm doimo ilg‘or, gumanistik va demokratik ijtimoiy fikr bilan chambarchas rivoj topadi. Realistik asarlarda voqealarni haqqoniy tasvirlash esa detallarning haqqoniyligidan boshlanadi, chunki hayotni obrazlar orqali, konkret tasvirlashi lozim bo‘lgan adabiyotda, san’atda bir butunning ajralmas qismi va o‘sha butunning tipik xususiyatlarini o‘zida aks ettirishi lozim bo‘lgan detallar alohida ahamiyatga ega. Adabiy asarda detallarning haqqoniy bo‘lishi - obrazlarning, xarakterlarning va butun hayot manzaralarning haqqoniy bo‘lishini ta’min etadi. Ana shu nuqtai nazardan qaraganda Jek London asarlarining xalq orasida mashhur bo‘lishining asl sabablari uning real voqealarni real tasvirlashida deb aytish mumkin.

XULOSA

Xalq bu asarlarni o'qir ekan unda o'zini, o'z hayotini, farzandlari va ularning ayanhli turmushini ko'radi. Bu jihatdan London hikoyalari o'sha davr jamiyatining asl qiyofasini ko'rsatib beruvchi ko'zgu vazifasini o'taydi. Jek London badiiy ijodi jarayonida turli xil ifoda vositalaridan foydalanar ekan, yagona maqsad voqelikni kitobxon ko'z o'ngida real gavdalanitirish, kishilik jamiyatining dolzarb muammolarini yoritib berishdir. Jek London hikoyalarini tarjima qilargan Fattoh Abdullayev ko'plab turdagi o'xshatish strukturalaridan foydalangan. Masalan, o'xshatish oborotlarini olaylik. Bu o'xshatishning ko'p tarqalgan formasidan biri hisoblanib, ba'zan o'xshatish ergash gaplarga o'xshab ketadi.

Bizning e'tiborimizni o'ziga ko'proq tortayotgan mamlakatlar Qalam ahillari, chunonchi G'arbiy Yevropa mamlakatlari adabiyotining ajralmas bo'lagi hisoblanmish Angliya adabiyoti va ingliz zamon ijodkorlar sanalmish Amerika adabiyoti vakillari asarlarining o'zbek tiliga tarjimalari haqida gap ketadigan bo'lsa, shuni alohida qayd etish lozimki, bunday tarjima asarlari o'zbek ijodkorlari e'tiborini darhol o'ziga tortdi va tez orada ularning ko'pchiligi xalqimizning asarlariga aylanib, kitob javonlaridan o'rin oldi.

Jek London hikoyalari hayotiy voqelikka asoslangan bo'lib, ular yozuvchining o'ta sinchkov, kuzatuvchan shaxs ekanidan dalolat beradi. Bu asarlar bilan tanishgan o'quvchi hayotni yana-da chuqurroq o'rganadi, uning pastu balandlikdan iborat yo'l ekanini his qiladi, muallifning jonli tasvirlarida o'z hayoti bilan uyg'un bo'lgan qandaydir o'xshash chizgilarni ko'radi. Yozuvchi qalamiga mansub asarlarning bugungi kungacha yashab, muxlislari tarafidan sevib-ardoqlanib kelinayotganining siri ham shunda.

Ta'kidlash kerakki, Jek London ijodi bilan yaxshigina tanish bo'lgan Abdulla Qahhor, bizningcha, o'z romani uchun nafaqat "Martin Iden"ning syujet liniyasini, balki Jek London hayotining o'zini ham asos qilib olgan; juda bo'lmaganda, fojiali qismat egasi bo'lgan amerikalik iste'dodli adib hayoti voqealari g'ayri ixtiyoriy ravishda "Sarob"da aks etgan. Chunonchi, ijtimoiy ideallari barbod bo'lgan, mashhur yozuvchilik haqidagi orzulari puchga chiqqan Saidiy dastlab Soraxonga uylanib, oilaviy hayotda osoyish topmoqchi bo'ladi, keyin esa o'zini turmush xo'jaligiga uradi, imorat soladi. Bu Jek London hayoti voqealarini esga soladi. Jek Londonning o'ziga to'q xonadon qizi Meybl Epplegartga bo'lgan muhabbati barbod bo'lgach, sevmasdan turib Bess Maddern ismli maktab muallimasiga uylanadi. Ammo bu nikoh ham omadsiz kelib, Jek ikkinchi marta Charmian Kittredjga uylanishga majbur bo'ladi. Ammo adib har ikkala safar ham oilaviy halovatga erisha olmaydi. Birinchi oilasidan bo'lgan qizlari bilan til topishishga harakat qiladi, ammo uni na xotini, na qizlari, na opalari - hech kim tushunmas, u o'z olami bilan yakka-yolg'iz edi.

Asta-sekinlik bilan adibning ko'ngli sotsialist-ishchilar harakatidan sovib, partiyadan uzoqlasha boshlaydi. o'zini tabiat qo'yniga, ishga, xo'jalikka uradi, bor kuchini Glen-Ellendagi fermer xo'jaligiga sarf qila boshlaydi, ot va qoramol boqadi, "Bo'ri uyi" deb nomlangan dabdabali uy quradi. Yuz ming dollarga tushgan "Bo'ri uyi" qurilib bitmasdan yonib kunpayakun bo'ladi. Fermer xo'jalik ham katta daromad keltirmay qo'yadi. Shunchalik qudratli siyosiy kurashlar bilan ham tevarak-atrofidagi hayotning zarracha o'zgarmaganini, katta-ko'pchilik xalq hamon qashshoqlik muhtojlik changalida halok bo'layotgani, aqlidan ozayotgani, ma'nan inqirozga uchrayotganini ko'rgan Jek London kuchli ichki iztiroblar changalida qoladi.

Ichkilikka beriladi, sog'ligiga putur yetadi. Keyin esa sotsialistlar partiyasidan uzil-kesil chiqish haqida ariza beradi. Oxir-oqibatda esa nosog'lom tanasidagi qattiq og'riqlarga chiday olmagan, tushkunlikni yenga olmagan adib qabul qilinajak morfiyni me'yorida oshirib, qirchillama 40 yoshida o'z hayotiga

yakun yasaydi. Bularning bari Saidiy hayotining manzaralarini ko‘z oldimizga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jek London “Kish haqida qissa” Tarjima” Toshkent 1996. –22 b.
2. Pulatov Yu. Badiiy asarda nomlar tarjimasi. T. : Fan, 1967, 37-bet
3. Будагов Р. А. В защиту понятия "стиль художественной литературы". «Вестник», МГУ. 1962, № 4
4. Доминин К. А. Стилистика французского языка. Л., 1987 г.
5. Федоров А.В. Основы общей теории перевода. Издание 3-е, М.: Высшая школа, 1968, 396 с.
6. Федоров А.В. Введение в теорию перевода (Лингвистические проблемы) М., 1958.
7. Федоров А.В. Введение теорию перевода, М., 1953 стр. 139 Влахов С,
8. Флорин С. Непереводимое в переводе. М., 1980, стр.439-440
9. Buranov J., Muminov A.M. A practical course in English lexicology. T.: O'qituvchi, 1990, 168 p.
10. Crystal D and Davy D. Investigating English Style. London, 1969. Dominin K. A. Доминин К. А. Стилистика французского языка. Л., 1987 г.
11. Letter from Jack London. – N.Y., 1965. http://en.wikipedia.org/wiki/Jack_London